



Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, dastlabki ma’lumot)

2022-yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 592,0 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 116,5 %ga oshdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Korxonalar va tashkilotlar soni

101,7 %



Xodimlar soni

100,7 %

Ish haqi fondi

121,3 %




O‘rtacha ish haqi

116,5 %

Ma’lumot uchun: O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining

(2022-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(2022- yil yanvar-mart oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2022-yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. moliya, sug'urta faoliyatida – **6 336,1** ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – **3 526,9** ming so'mni tashkil etdi.


Sanoat




Qurilish




Tashish va saqlash




Moliya va sug'urta faoliyati



Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 329,3 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 13,4%ga oshgan.




Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahri - **148,2 %** va Qo'qon shahri - **123,6 %** hissasiga to'g'ri kelgan.



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Shu bilan birga, **15** ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Furqat tumani – **95,5 %**, Marg'ilon shahri - **96,1 %**, Dang'ara tumani - **90,8 %** Yozyovon tumani – **97,7 %**, hissasiga to'g'ri kelgan.





Qurilish sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Qurilish sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Qo'qon shahri—**167,2%**, Farg'ona tumani—**123,9%**, Farg'ona shahri – **102,3 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Shu bilan birga, viloytaning **5** ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyt darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlari Marg'ilon shahri - **67,0 %**, Bag'dod tumani - **79,1 %** hissasiga to'g'ri keldi.






Savdo sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Oltiariq tumani - **116,9** %, Farg'ona shahri - **122,4%**, Bag'dod tumani - **135,4** %hissasiga to'g'ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning **2** ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Uchko'prik tumani - **67,0** %, Marg'ilon shahri - **97,9** %hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






Sanoat sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahri - **112,4 %**, Bog'dod tumani – **114,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.



Shu bilan birga, viloyatining **12** ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi. Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Farg'ona tumani – **65,8 %**, Dang'ara tumani - **66,5 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Furqat tumani - **113,6** %, Quva tumani - **119,6** %, hamda Qo'shtepa tumani - **109,4** % hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning **10** ta hududida o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Uchko'prik tumani - **85,9** %, Bag'dod tumani - **97,8** %, Qo'qon shahri - **96,8** %, O'zbekiston tumani - **96,3** %, Dang'ara tumani - **84,8** %, hamda Oltiariq tumani - **84,3** % hissasiga to'g'ri kelgan.



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






Tashish va saqlash sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshloq tumani - **102,4 %** va Qo'qon shahri – **109,5 %** kuzatildi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan bir qatorda, viloyatning 4 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Farg'ona shahri – **81,3 %**, Quvasoy shahri - **36,1 %**, hamda Rishton tumanida - **44,6 %** kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Qo'qon shahrida – **149,5 %**, Quva tumani – **101,1%**, Marg'ilon shahri - **116,9 %**, tashkil etdi.

Ushbu sohada o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning 6 ta hududida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi. Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Farg'ona shahrida - **91,0 %**, O'zbekiston tumani – **35,5%**, Buvayda tumani - **58,6 %**, va Uchko'priq tumanida – **60,6 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %da

(2022-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida 2021-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi sanoatda **8,3** %ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **14,9** %ga, ta'lim sohasida **13,4** %ga, axborot va aloqada **34,0** %ga bank, sug'urta faoliyatida **31,0** %ga, qurilishda **6,0** %ga o'sganligi kuzatildi, savdoda **84,7** %ga kamayishi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %da

(2022-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida **3 465,4** ming so'mni, Qo'qon shahrida **2 978,2** ming so'mni, Quvasoy shahrida **2 465,4** ming so'mni va Marg'ilon shahrida **2 242,1** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida **2 043,1** ming so'mni, Farg'ona tumanida **2 061,2** ming so'mni tashkil etgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

	yanvar-mart 2021-yil	yanvar-mart 2022-yil	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	2226,0	2592,7	116,5
Farg'ona	2910,9	3465,4	119,0
Qo'qon	2364,0	2978,2	126,0
Quvasoy	2161,3	2465,4	114,1
Marg'ilon	1966,8	2242,1	114,0
Oltiariq	1667,0	1859,5	111,5
Qo'shtepa	1988,1	2162,2	108,8
Bag'dod	2064,7	2335,4	113,1
Buvayda	1650,9	1898,4	115,0
Beshariq	1677,1	1931,2	115,2
Quva	1932,3	2145,0	111,0
Uchko'prik	1868,5	1999,7	107,0
Rishton	1912,6	2393,3	125,1
So'x	1932,8	2277,4	117,8
Toshloq	2268,5	2976,9	131,2
O'zbekiston	1965,4	2133,7	108,6
Farg'ona	1758,2	2061,2	117,2
Dang'ara	1816,1	2043,1	112,5
Furqat	2064,4	2232,7	108,2
Yozyovon	2001,1	2282,4	114,1

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi Qaroriga muvofiq, 2021-yilning 1-sentabrdan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **822000** so'mni tashkil etgan edi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlaridan aniqlanadi.

**Farg'ona viloyati statistikasi
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-32